



**JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIIY HARAKATLANGANLIK
OMILLARI (QADIMGI XITOIY)**

**Usmanova Shohsanam., Igamberdiyev Doniyorjon., Dovudova
Ismigul., Bozorov Azizjon., G'ulomov Samandar**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 02.06.2024
Qayta qabul : 10.06.2024
Saytda mavjud : 12.06.2024

Muallif (lar)
Sh.Usmanova
D. Igamberdiyev
I.Dovudova
A.Bozorov
S.G'ulomov

Muallif bilan aloqa



azizjon7bozorboyev0807@gmail.com

© **Sh.Usmanova va boshqalar**

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy harakatlanganlik omillari va qadimgi Xitoy ilk falsafiy ta'limoti haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Jamiyat, taraqqiyot, falsafiy ta'limot, mifologiya, konservativ sivilizatsiya

Абстрактный. В данной статье рассматриваются развитие общества, факторы социальной мобильности, а также ранние философские учения древнего Китая.

Ключевые слова. Общество, развитие, философское учение, мифология, консервативная цивилизация

Abstract. This article discusses the development of society, the factors of social mobility, and the early philosophical teachings of ancient China.

Keywords. Society, development, philosophical doctrine, mythology, conservative civilization

Jamiyat taraqqiyoti tabiiy-tarixiy, qonuniy jarayondir. Moddiy ishlab chiqarish Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ya'ni muayyan ijtimoiy qatlam, toifa va guruhlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda turli qatlam va toifalarning mavjudligi mehnat taqsimoti, shuningdek, ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik munosabatlari, jamiyatda yaratilgan moddiy boyliklardan oladigan ulushiga bog'liq. Bular Jamiyatdagi kishilarning faoliyati hamda daromadiga qarab turli kasbiy va ijtimoiy guruhlarga ajralishining negizidir. Jamiyat hayoti iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalarga ajraladi. Iqtisodiy soha moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishni o'z ichiga oladi. Unda mamlakatning xo'jalik hayoti tashkil etiladi, uning turli tarmoqlarining o'zaro bog'likligi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlik amalga oshiriladi. Bu jamiyat taraqqiyoti uchun eng asosiy sohadir. Ijtimoiy soha jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, toifalar hamda milliy birliklar, ularning ijtimoiy hayoti va faoliyatini uyg'unlashtiradi (qarang Ijtimoiy guruhlar). Siyosiy soha turli ijtimoiy toifa va guruhlar, milliy birliklar, siyosiy partiyalar va harakatlar, jamoat tashkilotlarning o'z siyosiy faoliyatini amalga oshiruvchi makondir. Ularning faoliyati Jamiyatdagi o'rnatilgan siyosiy munosabatlar asosida o'z siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga qaratiladi (qarang Jamiyatning siyosiy tizimi).

Ma'naviy sohada kishilar turli ma'naviy qadriyatlarni yaratadi, tarqatadi va Jamiyatning turli qatlamlari tomonidan o'zlashtiriladi. Bu soxaga adabiyot, san'at, musiqa asarlari bilan bir qatorda kishilarning bilim saviyasi, fan, axloqiy me'yor va umuman olganda, Jamiyathayotining ma'naviy mazmunini tashkil qiluvchi narsalar kiradi

Qadimgi Xitoy ijtimoiy falsafiy fikr dastlab vujudga kelgan va taraqqiy etgan mamlakatlardan biri edi. Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo'liga o'tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash ustivorlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Xitoy mifologiyalarida butun koinot – osmon, yer va tabiat hodisalari ilohiylashtirilgan bo'lib, inson hayot kechirish muhitini tashkil qiladi. Aynan shu afsonalashirilgan muhitdan narsalar, hodisalar mavjudligini ta'minlaydigan, ularni boshqarib turadigan oliy bir tamoyil

keltirib chiqariladi. Bu tamoyil ko'pincha oliy hukmdor (shandi), ba'zan esa oddiy osmon (tyan) sifatida ishlatib kelingan. Qadimgi Xitoy fasafasi konservativ sivilizatsiyaning bir qismi bo'lib u diniy matnlar madaniyatiga tayanardi. Hindistonda bo'lgani kabi, ozod bo'lish yoki xalos bo'lishga nisbatan qiziqish unchalik kuchli bo'lmagan. Aksincha, u ko'proq amaliy va pragmatik yo'nalishga ega edi. Xitoy faylasuflari asosan kambag'al a'yonlarga mansub bo'lgan. Ular ko'pincha g'oyat ulkan imperatorlik saroylari qoshida amal qilgan ma'muriy tizim sektorlarida faoliyat yuritishgan. Ko'pgina buyuk xitoy Mutafakkirlari ana shu ijtimoiy muhitning samarasi sifatida dunyoga kelgan. Ko'pchilik tomonidan hurmat-ehtiram ila tan olingan donishmandlar ta'sirida asta-sekin Xitoy falsafiy tafakkuri shakllana borgan. Ko'p hollarda ularning ismlari aniq bo'lmasada, aynan ular asotirlar, afsonalar ma'naviy ta'siridan ozod bo'la borganlar va olam to'g'risidagi ilk dunyoqarashni o'zlarida shakllantirib, rivojlantirganlar. Ularning qarashlarida afsonaviy va dunyoviy bilimlar bir-biri bilan bevosita bog'lanib, bir-birini to'ldirib brogan Xitoy falsafasi o'zining gullab yashnagan vaqtiga "urushuvchi davlatlar" deb atalgan davrda erishdiki, uni Xitoy falsafasining "oltin davri" (eramizdan avvalgi VI-III asrlar) deb atadilar.

Qadimgi Xitoydagi ilk falsafiy ta'limotlarga ko'ra, osmon va yer bilan chegaralangan olam in hamda yan

tamoyillariga amal qiladi. Yan tamoyili narsalar mohiyatiga faol kirib boruvchi kuch sifatida talqin qilinsa, in esa passiv kuzatuvchi, zulmatni ifodalovchi tushunchadir. Lekin ularni bir-birini rad etuvchi jihatlar tariqasida tushunish xato, chunki ularning hamjihatligi tufayli kuchlar birlashadi, uzilgan yo'nalishlar muayyan shaklga ega bo'ladi, yer bilan osmon o'zaro munosabatlari ochib beriladi. In va yan harakati – bir butunlik o'zgarishining dialektik harakati. Narsa va hodisalarning o'zaro hamkorligi ularning o'zgarishi orqali ta'minlanadi. In va yanning o'zaro harakati natijasida oltita kategoriyalar paydo bo'ladi. Bular – momaqaldiroq, shamol, olov, suv, qaytish va osoyishtalik. Ushbu kategoriyalar Osmon, Yer va Inson bilan bog'liq muammolarni yoritishda keng qo'llanilgan.

Qadimgi Xitoy falsafasida turli xil yo'nalish va oqimlar mavjud bo'lib, Ularda falsafiy tafakkur qadriyatlarini ishlab chiqishga uringan mashhur kishilar, o'z davrining ko'zga ko'ringan donishmandlari tabiat, jamiyat va inson hayotiga taalluqli bo'lgan ko'pgina muammolarning real yechimini izlaganlar. Bunday muammolarni o'z ijtimoiy ideallaridan kelib chiqqan holda hal etishga uringanlar. Tabiiyki muammolarning yechimi bir

xil emas, chunki olam cheksiz va benihoyadir. Ularni chegaralangan nazariy tamoyillar tizimi vositasida qamrab olish mumkin emas edi. Falsafiy maktablar, yo'nalishlarning turli-tumanligini, shu bilan izohlash mumkin. Qadimgi Xitoydagi ilk falsafiy ta'limotlarga ko'ra, osmon va yer bilan chegaralangan olam in hamda yan tamoyillariga amal qiladi. Yan tamoyili narsalar mohiyatiga faol kirib boruvchi kuch sifatida talqin qilinsa, in esa passiv kuzatuvchi, zulmatni ifodalovchi

tushunchadir. Lekin ularni bir-birini rad etuvchi jihatlar tariqasida tushunish xato, chunki ularning hamjihatligi tufayli kuchlar birlashadi, uzilgan yo'nalishlar muayyan shaklga ega bo'ladi, yer bilan osmon o'zaro munosabatlari ochib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Falsafa. Qomusiy lug'at. - T., "Sharq", 2004 yil.
2. J. Tulenov Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim. - T., 2001 yil.
3. Falsafa. O'quv qo'llanma. E. Yusupovning umumiy tahrir ostida. - T., "Sharq", 1999 yil.
4. Falsafa (Matbua Axmedovaning umumiy tahriri ostida) - T., "O'zbekiston filasouflari Milliy jamiyati" nashriyoti, 2006 yil
5. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. 1-kitob. – Toshkent, 2004. – B.43
6. Shavkatovna, U. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIM MUXITIDA TALABALARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH TIZIMININI TAKOMILLASHTIRISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(2), 136-139.
7. Usmanova, S. (2022). TALABALARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA AKSIOLOGIK PEDAGOGIKADAN SAMARALI FOYDALANISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 121-123.
8. Usmanova, S. (2022). Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda pedagogik aksiologiyani ahamiyati. Евразийский журнал академических исследований, 2(10), 51-55
9. Shavkatovna, U. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIMDA ILMIY PEDAGOGIK MUHITNING TALABALAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR